

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

1-SHO'BA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVI JARAYONLAR

**Г.Юлдашев, М.Т.Исагалиев, А.Т.Турдалиев, У.Б.Мирзаев, И.Н.Мамажонов,
С.А.Махрамхужаев, З.М.Азимов**

Гумусное и энергетическое состояние горно-коричневых почв Западной Ферганы 9

**Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, U.M.Nomozov, K.A.Idirisov, S.Q.Mahammadiyev,
O.N.Imomov, B.B.Abdukarimov, Sh.Z.Abdullahayev, N.Y.Abdurahmonov, G.T.Djalilova,
Sh.M.Xoldorov, S.M.Małgorzata, W.Bogusław, Y.M.Tokhtasinova**

Orol dengizining qurigan tubida tarqalgan tuproq-gruntlarining radiologik xavfsizlik

ko'rsatkichlari 16

А.С.Вайнберг, Е.В.Абакумов

Микропластик в почвах: обзор экологических рисков 20

В.М.Гончаров, Е.В.Шеин

Гранулометрия как физическая основа биогеохимических процессов 24

**G.T.Parpiyev, N.J.Xushvaqtov, A.X.Shukurov, S.Sh.Hasilbekov, H.I.Ibodullayev,
D.H.Hasilbekova**

Kartoshka o'simligini *In vitro* sharoitida ko'paytirishda ozuqa muhitining tarkibi va
tayyorlanish texnologiyasi 30

О.Б.Цветнова, В.М.Гончаров, Ш.Я.Эшпулатов, Г.Х.Утанова

Влияние лесных насаждений на свойства темно-серых лесных почв 35

Е.И.Походня, Е.В.Абакумов

Экотоксикологическая оценка почв Юнтоловского заказника 40

**G'.Yuldashev, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov,
S.A.Maxramxujayev**

Gipergen sharoitda pedogen elementlar biogeokimyosi 44

U.B.Mirzayev, M.Ibroximova, F.Yulbarsova, F.Toyloqova, J.Komilov

Farg'ona viloyati sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligi va uni oshirish muammolari 53

A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, A.A.Ahmadjonov, D.O.Anafiyayeva

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda biomikroelementlarning biogeokimyosi 58

Z.M.Azimov, G'.Yuldashev, N.Sh.Yusufjonova

Madaniy fitomeliorant o'simliklarning biogeokimyosi 64

V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov

Landshaft ekologik holatni Yozyovon (Markaziy Farg'ona) suv ombori ta'sirida o'zgarishi 67

K.A.Asqarov, A.A.Ahmadjonov, I.I.Musayev, A.A.Xalilov

Sug'oriladigan tuproqlarda biomikroelementlar geokimyosi 74

I.M.Yusupov

Tuproq unumdorligini oshirishda anaerob azotofiksator baccillaceae oilasiga kiruvchi

Clostridium pasteurianum bakteriyasining tuproqda indikatorligi va ahamiyati 80

Z.J.Isomiddinov, S.M.Isag'aliyeva

Janubiy Farg'ona cho'l tuproqlari va piyozi (*Allium cepa L.*) o'simligi biogeokimyosi 84

M.X.Diyorova, Q.M.O'rroqov

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar miqdori 88

H.T.Artikova, S.S.Shadiyeva

Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarining xossa-xususiyatlari tadqiqi 91

M.X.Diyorova, S.N.Holiqova, M.F.Mamadiyorov

G'uzor massivida tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyovi xossalari 96

Z.J.Isomiddinov, M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev

Tog'li jigarrang tuproqlar va *Allium karataviense* regel, *Fritillaria sewerzowii* regel

o'simliklari biogeokimyosi 101

M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev, M.I.Aktamov, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlar geokimyosi 107

2-SHO'BA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR**RIVOJLANISH OMILI**

J.Ismakov, O'.X.Mamajanova, G.N.Kattayeva, A.T.Do'saliyev

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarida elementlarning geokimyovi akkumulyatsiyasi 113



УО'К: 631.416.9

MADANIY FITOMELIORANT O'SIMLIK LARNING BIOGEOKIMYOSI
БИОГЕОХИМИЯ КУЛЬТУРНЫХ ФИТОМЕЛИОРАНТНЫХ РАСТЕНИЙ
BIOGEOCHEMISTRY OF CULTIVATED PHYTOMELIORANT PLANTS

Azimov Zikrjon Muxammadovich¹

¹Farg'ona davlat universiteti, b.f.f.d. (PhD)

Yuldashev G'ulom²

²Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.d., professor

Yusufjonova Nazokatxon Shamsiddin qizi³

³Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sho'rxok yerlarda o'suvchi madaniy fitomeliiorant o'simlikning kimyoviy element tarkibi atroficha o'rganigan bo'lib, unga asosan o'simlik tuproqdan olayotgan suvda erigan tuzlarning anion va kationlari, o'simlik-hayvonot-inson zanjiri uchun toksik ta'sir xossalaringa ega bo'lgan elementlar xususiyatlarni lognormal spektrlar asosida tasvirlangan. Qolaversa, oq jo'xori o'simligining dorivorlik va fitomeliiorantlik xossasi bo'yicha atroficha so'z boradi.

Аннотация

В данной статье подробно изучен химический элементный состав культурных растений-фитомелиорантов, произрастающих на засоленных землях, с водорастворимой солями из которых растений получает токсичных и нетоксичных элементов вещества которые мигрируют в цепочки растений-животные-человек геохимическая характеристика которых описываются на основе логнормальных спектров, изученных химических элементов. Кроме того, подробно рассмотрены лечебные и фиторемедицинские свойства растения сорго белого.

Abstract

This article studies in detail the chemical elemental composition of cultivated plants-phytomeliorants growing on saline lands, with water-soluble salts from which the plant receives toxic and non-toxic elements of substances that migrate into plant-animal-human chains, the geochemical characteristics of which are described on the basis of log-normal spectra, studied chemical elements. In addition, the medicinal and phytoremedial properties of the *Solanum nigrum* plant are discussed in detail.

Kalit so'zlar: biogeokimyo, meliorativ, fitomeliorativ, toksik, sho'rxok, arzik-shox, migratsiya, akkumulyatsiya, litosfera, lognormal.

Ключевые слова: биогеохимия, мелиорация, фитомелиорация, токсичный, солончак, арзик-шох, миграция, аккумуляция, литосфера, логнормал.

Key words: biogeochimistry, reclamation, phytomelioration, toxic, saline soil, arzik-shox, migration, accumulation, lithosphere, lognormal.

KIRISH

Dunyoda tabiiy va antropogen sho'rxokli elementlar geokimyoviy landshaftlar bloklarining tabiiy holatini asrash, dorivor o'simliklardan samarali foydalanish, mahsuldarlik darajasini oshirish, ulardan samarali foydalanishda sho'r yuvish, sho'rga chidamlı o'simliklarni ekish kabi fitomeliiorativ tadbirdaridan foydalanish borasida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada avvallari botqoq bo'lgan sho'rxoklarning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishini tadqiq etish, tuproq-meliorativ, tuproq-geokimyoviy holati, kimyoviy va biogeokimyoviy xossa-xususiyatlarni aniqlash, mahsuldarligini oshirishga qaratilgan ishlar sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

Keyingi yillarda Markaziy Farg'onada turli tuproq-meliorativ tadbirlar o'tkazilishi natijasida nisbatan oson qishloq xo'jaligi aylanma harakatiga kiritish ya'ni dehqonchilikka tortishi mumkin bo'lgan tuproqli yerlar kamayib bormoqda. Tuproq-meliorativ nuqtai nazardan o'zlashtirilishi qiyin murakkab bo'lgan sho'rxoklar, sho'rangan botqoq tuproqlar, qumli, arzik-shoxli dahalar ko'plab uchraydi. O'zlashtirilgan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligi ortish o'rniga kamayishi kuchayib bormoqda.

Sho'rxoklar va sug'oriladigan tuproqlarning geokimyoziy, biogeokimyoziy, agrokimyoziy, kimyoziy, fizikaviy hamda meliorativ xossalarni tadqiq qilish, tuproqdagi kimyoziy elementlarni migratsiyasi, akkumulyatsiyasi va tuproq hamda o'simliklardi mavjud tuz hosil qiluvchi ionlarning konsentratsiyalanishi va dekonsentratsiyalanishi sabablarini o'rganish va tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Sho'rangan tuproqlardagi o'simliklarni sharoitga moslashuvining biogeokimyoziy va fitomeliorativ hususiyatlarini aniqlash hamda shu asosda ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali foydalanish katta amaliy va nazariy ahamiyatga molik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA


Elementlarning o'simlikka singdirilishi, tuproq-o'simlik zanjiridagi migratsiyasi ularning mexanizmini ochishga yordam beradi. Bu boradagi ishlar o'simliklarning makro- va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojini, kasalliklarining patologiyasini o'rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ularning bunday o'zgarishlarida muhit rolini ochishda yordam beradi. Bu sohadagi, ya'ni tuproq-o'simlik zanjiridagi kimyoziy elementlar migratsiyasi, akkumulyatsiyasini yechimida organizmlar evolyutsiyasini o'rganish muhim nazariy kalit bo'lib xizmat qiladi [1,3].

Tuproq-o'simlik zanjiridagi tadqiqotlar tabiiy sho'rxoklar va antropogen sho'rxoklarda o'suvchi madaniy hamda tabiiy o'simliklar formatsiyasi negizida amalga oshirilgan bo'lib, ushbu tuproqlar, ya'ni sho'rxoklar Na, Ni, Sb, As, Mo larga to'yungan, ya'ni ushbu elementlar o'rganilgan sho'rxoklarda ortiqcha provinsiya holatlarni tashkil qiladi, shunday sharoitda oq jo'xori va boshqalar o'sadi. Bugungi kunda qurg'oqchilikka va tuproq sho'rланishiga chidamlı o'simliklarning qariyb 700 ga yaqin turi dorishunoslikda va fitomeliorativ tadbirlarda qo'llanilmoqda [2]. Lekin bu o'simliklarning aksariyat qismini tabiiy sho'rxoklarda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi.

O'simlik organizmiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar ko'p bo'lib, ular qatoriga geokimyoziy, biogeokimyoziy omillar, hususan, o'simlik o'sayotgan substrat, tuproq xossalarning ta'siri katta. Bu borada tuproq bilan o'simlik o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish tuproq biogeokimyozinegizini tashkil qiladi va bu negiz tuproq tipi, tipchasi, o'simlik turi va boshqalarga bog'liq [4,5,6].

NATIJA VA MUHOKAMA

O'rganilgan sho'rxoklarda tabiiy va antropogen sharoitda siklik elementlar konsentratsiyasi oq jo'xori o'simligida har xil miqdor va sifatda ekanligini quyidagi diagramma misolida ko'rishimiz mumkin.



Litosfera va o'simlikda elementlarni lognormal spektri

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, oq jo'xori o'simligini tuproqdan har xil miqdorda suvda erigan tuzlarning anion va kationlari hamda o'simliklar uchun toksik ta'sir

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

xossalariiga ega bo'lgan metallmaslar va og'ir metallar hamda radionuklidlarni tanalarida olib chiqib ketishini bashorat qilish qiyin emas. Qolaversa, oq jo'xori o'simligi uchun individual miqdoriy geokimyoziy spektr tuzadigan bo'lsak, quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Oq jo'xori: $^{19}\text{K}_{39} > ^{20}\text{Ca}_{40} > ^{28}\text{Fe}_{56} > ^{38}\text{Sr}_{88} > ^{11}\text{Na}_{23} > ^{30}\text{Zn}_{65} > ^{25}\text{Mn}_{55} > ^{24}\text{Cr}_{52} > ^{42}\text{Mo}_{96} > ^{56}\text{Ba}_{137} > ^{28}\text{Ni}_{53} > ^{33}\text{As}_{75} > ^{27}\text{Co}_{59} > ^{51}\text{Sb}_{122}$.

Biogeokimyoziy formulaviy spektrdan ko'rinish turibdiki, o'rganilgan o'simlikda eng kichik miqdor surmaga tegishli, undan ko'proq miqdorlar kobalt, mishyak, nikel va boshqalarga to'g'ri keladi. Bu elementlar og'ir metallar qatorida turadi. Lekin bunda mishyak va surma metallmas bo'lsada, ayrim adabiyotlarda zaharli og'ir metallar qatoriga kiritilgan, bu bejiz emas, chunki ularning zaharlilik darajasi og'ir metallarga yaqin, sharoitga bog'liq ravishda ortiq bo'la oladi.

XULOSA

Siklik elementlar sho'rxoklar va ularda o'suvchi o'simliklar tomonidan elementning geokimyoziy xossalariiga, o'simlik turiga, tuproq holatiga, ya'ni tabiiy va antropogen sho'rxok ekanligiga qarab singdiriladi. Bu o'rinda makroelementlar bo'yicha oq jo'xori o'simligi yaqqol ajralib turadi, u eng yuqori miqdorda xlorni, mikroelementlardan molibdenni saqlaydi.

Sho'rxok o'simliklar formatsiyasi tuproqning ichki qatlamlardan o'zlariga kerak elementlarni olishga moslashgan va o'zlarini tanalarini shu asosda qurganlar, zaharli, zararli elementlarni olmaslik uchun biogeokimyoziy baryerlarni tanalarida shakllantiradi, ayrim kimyoziy elementlarni tanalaridan chiqarib tashlashga moslashgan.

Sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi-saz tuproqlar tarqalgan cho'l mintaqasi maydonlarida sizot suvlari kuchsiz harakatda va harakatsiz, har xil darajada va sifatda minerallashgan bo'ladi. Galofil o'simliklar sho'r tuproqlariga moslashgan, shu bois ularni har mavsum yig'ishtirib, dorivorlik hususiyatlarini o'rgangan holda qayta ishlash maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, oq jo'xori kabi madaniy o'simlikni sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish uch tomonlama, ya'ni tuproq sho'rlanishiga qarshi kurashishda fitomeliorant o'simlik sifatida, chorvachilikda yem-xashak va dorivorlik hususiyatlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных химических элементов в почвах. М. 1957. 238 с.
2. International Institute for Environment and Development (<http://www.iied.org>) International Center for Bio saline Agriculture (<http://www.biosaline.org>).
3. Abakumov E., Yuldashev G. et al. The Current State of Irrigated Soils in the Central Fergana Desert under the Effect of Anthropogenic Factors //Geosciences. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 90.
4. Yuldashev G., Azimov Z., Mamajonov I. Changes in Cyclic Chemical Elements in Saline Landscape //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 17. – С. 38-42.
5. Юлдашев Г., Азимов З. и др. Изменение запаса водорастворимых солей в природных и антропогенных солончаках //Аграрная наука – сельскому хозяйству. – 2023. – С. 140-141.
6. Yuldashev G., Raximov A., Azimov Z. Sho'rlangan tuproqlar melioratsiyasi. Toshkent, 2022. 257 b.